



TA'LIM JARAYONLARIDA "MA'NAVIYATNING ILMIY METODOLOGIYASI" FANI  
TUZILISHI, ASOSIY MAVZU VA MUAMMOLARI. FAN PREDMETINI O'RGANISHNING  
ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

S.A.Ismailov

Andijon davlat universiteti Ijtimoiy – iqtisodiyot fakulteti Mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6526247>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada metodologiyaning bilvosita ilmiy kashfiyotlar qilishdagi ahamiyati va oldida turgan konkret, dolzarb vazifalar haqida bayon etilgan. Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi fanining asosiy mavzulari, albatta, ma'naviyat tushunchasi (kategoriyasi)dan tashqari, ma'naviyatning tarixiy vujudga kelishi, rivojlanish qonuniyatlari, namoyon bo'lish shakllari, ma'naviyatni o'rganishga turlicha yondashuvlar, ma'naviyat, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar va shu kabi ko'plab masalalar tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** Metodologiya, ilmiy kashfiyotlar, sinergetik yondashuv, pozitsiya, konkret-ilmiy usullar, pedagogika.

**Abstract:** This article describes the importance of methodology in making indirect scientific discoveries and the specific and topical challenges it faces. The main topics of the scientific methodology of spirituality, of course, in addition to the concept (category) of spirituality, the historical origin of spirituality, the laws of development, forms of manifestation, different approaches to the study of spirituality, spirituality and the relationship between its components and many similar issues.

**Key words:** Methodology, scientific discoveries, synergetic approach, position, concrete scientific methods, pedagogy.

**Аннотация:** В этой статье описывается важность методологии в совершении косвенных научных открытий, а также конкретные и актуальные проблемы, с которыми она сталкивается. Основными темами научной методологии духовности, безусловно, помимо понятия (категории) духовности, являются историческое происхождение духовности, законы развития, формы проявления, различные подходы к изучению духовности и взаимосвязь между его компонентами и многие подобные вопросы.



**Ключевые слова:** Методология, научные открытия, синергетический подход, позиция, конкретно-научные методы, педагогика.

Har bir fan o'z sohasiga oid ilmiy bilimlar beradi. Ularni turli tadqiqot usullari, vositalari orqali aniqlaydi, qayta tekshiradi, baholaydi, umumlashtiradi, kamchiliklarni to'ldirib, boyitib boradi. Har bir fan o'rganayotgan sohasini, narsa va hodisalarni, ular o'rtasiga bog'liqlik va munosabatlarni, o'zgarishlar va yangilanishlarni o'z xususiyatidan, o'z predmetidan kelib chiqib tadqiq etadi. Bu jarayonda u barcha fanlarga xos ilmiy tadqiqot usullari va vositalari bilan bir qatorda faqat o'ziga xos ba'zi bir usullar va vositalardan, asbob-uskunalardan, o'lchov ko'rsatkichlaridan va h.k. foydalanadi.

Fanning vazifasi tadqiqot sohasiga, ob'ektiga taalluqli ilmiy haqiqatni aniqlashdir. Bu haqiqatga eltadigan yo'lni yunon tilida metodologiya, umuman fan qo'llaydigan barcha umumiy va konkret yondashuvlar, usullar va vositalarni metodologiya (metod-yo'l; logos-ta'limot) deb ataladi. Metodologiya bevosita ilmiy yangiliklarni kashf etmaydi, yangi bilimlar bermaydi, yangi bilimlarga qanday erishishni ko'rsatadi, balki mavjud va aniqlangan bilimlarning, ilmiy xulosalarning to'g'riligi yoki xatolarni baholaydi. Bu xatolarga tadqiqot usuli va vositalardagi qaysi kamchiliklar sabab bo'lgani, ilmiy tahlil, umumlashtirish va xulosa chiqarishda adashishga olib kelganini aniqlashda yordam beradi. Boshqacha aytganda, ilmiy metodologiya fan to'g'risidagi fandir. Lekin metodologiyaning bilvosita ilmiy kashfiyotlar qilishdagi ahamiyati ulkan. U muayyan fanga ilmiy va ijtimoiy mo'ljal beradi, oldida turgan konkret va dolzarb vazifalarni, maqsadlarni aniqlab olishga ko'maklashadi. Bularsiz esa hech bir fanni samarali rivojlantirib bo'lmaydi, chunki metodologiyasiz ilmiy kashfiyotlar stixiyali amalga oshiriladi. Ba'zan esa kashfiyotning mazmun-mohiyati, ilmiy va amaliy ahamiyatini na olimlar, na jamiyat munosib baholay olmaydi. Natijada yangi g'oya, yangi kashfiyot qog'ozda qolib ketaveradi. Jamiyat ularni to'g'ri baholab, amalda qo'llashiga o'n yillar, hatto asrlar o'tib ketadi. "Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi" fani ma'naviyat sohasiga oid haqqoniy, ob'ektiv ilmiy bilimlarga erishish usullari, vositalari to'g'risidagi fandir. U ma'naviyat sohasini o'rganuvchi fanlarga o'ziga xos ilmiy yo'l-yo'riq beradi, ilmiy mezon vazifasini bajaradi. Buning uchun u, eng avvalo, "ma'naviyat" tushunchasi maazmun-mohiyatining o'zi qay darajada to'g'ri aniqlangani, uni o'rganishga qaysi ilmiy-e'tiqodiy pozitsiyalardan, ilmiy-ijtimoiy maqsad va vazifalardan kelib chiqib yondashilganini tahlil qiladi.<sup>1</sup>

Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi fani predmetini o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh – umumfalsafiy yondashuvlar va

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.



tamoyillar: ob'ektivlik, konkretlik, mantiqiylik, tarixiylik, tizimlilik (sistemaviylik), strukturaviy (tuzilmaviy)lik, mavhumlikdan aniqlikka ko'tarilish, dialektik mantiq va qonunlarni (qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor va sifat birligi, inkorni inkor etish qonunlari) hisobga olish.

Falsafiy yondashuvlar an'anaviy metafizik va dialektik yondashuvlarga bo'lingan. XX asrning ikkinchi yarmida sinergetik yondashuv vujudga keldi. Sinergetik yondashuv dialektik yondashuvning bir shaklidir. Agar an'anaviy dialektik yondashuvni o'rganilayotgan ob'ektdagi ziddiyatlar, ularning konfliktga aylanishi, oqibatda yangi sifatning vujudga kelishi, unda avvalgi sifatdagi yashovchan jihatlarning saqlab qolinishi, rivojlanish jarayonida yana yangi sifatning tug'ilishi va unda avvalgi sifatning o'ziga xos sintezi (birlashuv, chambarchas, uzviy birlikni tashkil etishi) qiziqтира, sinergetik yondashuvni ko'proq konfliktga aylangan ziddiyatni yechish, hal qilish, bosib o'tish, turli tizimlar (masalan, jonli va jonsiz organizmlar) o'rtasidagi umumiylik, o'xshashlik qiziqtiradi.<sup>2</sup>

To'plangan bilimlarni umumlashtirish, tartibga solish, tizimga keltirish, ilgari to'plangan ilmlar bilan bog'lash, ulardan farqli xususiyatlarni va fan oldidagi vazifalarni aniqlash umumfalsafiy usullar va tamoyillar yordamida amalga oshiriladi. Umumfalsafiy usullarni qo'llamasdan, biror fan haqiqiy ilmga aylana olmaydi, balki ijtimoiy tajriba, ishlab chiqarish beradigan bilimlar to'plami kundalik ong darajasida qolib ketadi.

Ikkinchi yondashuv – xususiy ilmiy hamda faqat shu fanga xos usullar, yondashuvlar, tadqiqot vositalaridir. Ularni tadqiqot maqsadi va o'rganish metodikasi deyish mumkin. Metodika fan oldiga qo'yilgan konkret vazifani bajarish, belgilangan aniq maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan uslublar, vositalar, ekperimentlar (tajribalar), tahlil etish va umumlashtirish uslublari (masalan, statistik va matematik usullar, yoki sotsiologik tadqiqot usullari – kuzatish, og'zaki so'rov, intervyu, anketa so'rovi va sh.k) mavjuddir.

Davlat universitetlari va pedagogika institutlari talabalariga turli xil o'qitish metodikasi yaxshi tanish: dars mavzusini tushuntirishda o'qituvchi har xil ko'rgazmali vositalardan, audio, videomateriallardan, har xil kompyuter texnologiyalaridan, interfaol usullardan foydalanishi mumkin.

Yoki muhandislik – texnik, qishloq xo'jaligi, tabiatshunoslikka oid boshqa oliy o'quv yurtlari va fakultetlari talablariga turli xil eksperimentlar, tajribalar o'tkazish, modellashtirish uslubiyati yaxshi ma'lum. Masalan, qishloq xo'jaligiga oid tadqiqotlarda o'simlik navining yangi turining optimal agrotexnikasini ishlab chiqish uchun bir necha

<sup>2</sup> Karimov I.A. Istialol va ma'naviyat. T., 1994.



variantlarda nav sinovdan o'tkaziladi. Tajriba gektariga hisoblaganda 100, 200, 300, 400, 500 ming va h.k. sonli o'simliklarni joylashtirishi, ekishning har xil sxemalarini, gektariga hisoblaganda to'g'ri keladigan o'g'it va h.k.larning optimal miqdorini aniqlash, necha marta sug'orish, necha marta chopiq qilish va ko'plab talablarni aniqlash uchun har xil sxemalarda tajriba bir necha karra o'tkaziladi. Bunda turli sxemalarda o'simlik vegetatsiya davrida qanday rivojlanishi va har xil ko'rsatkichlar, energetik va iqtisodiy harajatlar aniqlab boriladi. Turli matematik, fizikaviy, kimyoviy, biologik, iqtisodiy tahlillar, o'lchashlar, ko'rsatkichlar orqali yangi navni yetishtirishning agrotexnikasi va ishlab chiqarish texnologiyasi yaratiladi. Qo'llanilgan konkret-ilmiy usullar, vositalar majmui – metodika deyiladi.

Metodologiya tor mazmunda umumfalsafiy, umumilmiy usullar tizimiga nisbatan qo'llaniladi va metodikadan (uslubiyatdan) farqlanadi. Ammo keng mazmunda metodologiya ham umumfalsafiy, umumilmiy usullarni, ham metodikani ifodalaydi. Zero, metodikani, ya'ni konkret natijaga, aniq maqsadga erishish vazifasini fanning umumiy vazifasidan – ob'ektiv haqiqatni, ob'ektiv qonuniyatni aniqlash vazifasidan ajratib bo'lmaydi.<sup>3</sup>

Xususiy fanlar, jumladan ma'naviyat hodisalari va jarayonlarini o'rganadigan fanlar natijalari, ya'ni xususiy ilmiy fakt, g'oya, xulosa metodologiya yordamida umumiy ilmiy-falsafiy nazariyalar, dunyoqarash va e'tiqodiy ta'limotlar xulosalari, g'oyalardan kelib chiqib baholanadi, ular bilan bog'lanadi. O'rtada nomuvofiqlik vujudga kelib, xususiy fan aniqlagan fakt talqini, xulosasi umumiy nazariyaga zid chiqsa, sababi aniqlanadi. Bunda yo xususiy fan yo'l qo'ygan xato, yo nazariyadagi kamchilik ayonlashadi va tuzatiladi.<sup>4</sup>

Murakkab ziddiyatli, ko'pqatlamli va ko'ptarkibli tizimlarni o'rganishda, olingan natijalarga baho berishda, ularni ilmiy bilimlar bilan bog'lashda falsafiy yondashuvga, keng mazmunda qo'llaniladigan metodologiyaga zarurat kuchayadi. Bu, bir tomondan, bilish jarayonining murakkablashib borishi bilan, ikkinchi tomondan – ijtimoiy munosabatlarning yanada rang-baranglashib, boyib borishi hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti tug'dirayotgan yangidan yangi axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa ijtimoiy muammolar bilan bog'liq. Mazkur jarayon ob'ektiv ravishda ma'naviyatni har tomonlama chuqur o'rganishni, binobarin, ma'naviyatning ilmiy metodologiyasini ham rivojlantirishni taqozo etadi.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.

<sup>4</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T. -«O'zbekiston»-1996.





Markaziy Osiyodagi Uyg'onish davri jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida eng katta yutuqlarga erishdi. Bu davrda siyosiy va huquqiy fanlar, yangi adabiyot va san'at, tibbiyot, falsafa, yangi estetik ong yaratildi.<sup>5</sup>

Ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi fani tarix, etika, estetika, siyosatshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'langan. Filosofiyaning bilish nazariyasi, ijtimoiy falsofiya, muayyan masalalarda etika, estetika fanlari ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi fani uchun nazariy asos, yo'l ko'rsatuvchi, ijtimoiy mo'ljal beruvchi fanlardir. O'z navbatida, ma'naviyatning ilmiy metodologiyasi fani ma'naviyat asoslari, ma'naviyat nazariyasi va tarixi, tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika va boshqa xususiy ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun ma'naviyat masalalari bo'yicha metodologik nazariya vazifasini bajaradi. Unda inson tabiat bilan muloqot qilishda ehtiyotkor bo'lishi va uning tabiiy mohiyatini saqlab qolishi kerakligi maqolaning mohiyati tushuntiriladi.<sup>6</sup> U mazkur fanlarning dalillariga, materiallariga, g'oyalari va xulosalariga tayanadi, ulardan foydalanadi, o'z predmeti doirasida ularni birlashtiradi, umumlashtiradi va o'z nazariy konsepsiyalarini baholash, ijtimoiy va ilmiy mo'ljal ko'rsatish tizimini ishlab chiqadi.

#### References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. Istialol va ma'naviyat. T., 1994.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T. - «O'zbekiston»-1996.
5. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

<sup>5</sup> Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

<sup>6</sup> Abdullaev, A. N. (2019). COEVOLUTION CHALLENGE IN SOCIETY AND NATURE OF SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 157-160.